

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№5

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
32 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	



NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA ULAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna

Namangan davlat texnika universiteti

Menejment kafedrası stajyor-o'qituvchisi

E-mail: muazzamjalolova859@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0037-2267

Annotatsiya: Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishida muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini oshirish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Tadqiqotning maqsadi – Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining hozirgi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini asoslashdir. Ish davomida statistik tahlil, hujjatlarni kontent tahlili va taqqoslash usullari qo'llanildi. Natijalar kichik biznes faoliyatida moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi sustkashlik va raqobatbardoshlikning yetishmasligi asosiy to'siqlar ekanligini ko'rsatdi. Muallif tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari va institutsional yondashuvlar taklif etildi. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kichik biznes, Namangan viloyati, tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqobatbardoshlik, innovatsiya, ish o'rinlari.

Abstract: Small business plays a crucial role in ensuring sustainable economic growth in any country. In Uzbekistan, comprehensive reforms are being implemented to support entrepreneurship, create new jobs, and improve the population's standard of living. This study aims to assess the current state of small business entities in Namangan region, identify key challenges, and propose ways to enhance their effectiveness. The methodology involves statistical analysis, content analysis of policy documents, and comparative evaluation. The findings indicate that limited access to financial resources, weak implementation of innovative technologies, and low competitiveness are among the main constraints faced by small enterprises. The author proposes practical institutional mechanisms and support models to foster business development. The research outcomes offer useful insights for the formulation of regional economic policies.

Keywords: small business, Namangan region, entrepreneurship, economic efficiency, financial support, competitiveness, innovation, employment.

Аннотация: Малый бизнес является важным фактором устойчивого экономического роста любой страны. В Узбекистане проводятся масштабные реформы по поддержке предпринимательства, созданию новых рабочих мест и повышению уровня жизни населения. Цель настоящего исследования – проанализировать текущее состояние субъектов малого бизнеса в Наманганской области, выявить существующие проблемы и обосновать пути повышения их эффективности. В работе использованы методы статистического анализа, контент-анализа нормативных документов и сравнительного подхода. Результаты показывают, что ограниченный доступ к финансированию, слабое внедрение инноваций и низкая конкурентоспособность являются основными препятствиями для развития малого бизнеса. Автор предлагает эффективные институциональные меры поддержки и рекомендации для повышения деловой активности. Выводы исследования имеют практическое значение для региональной экономической политики.

Ключевые слова: малый бизнес, Наманганская область, предпринимательство, экономическая эффективность, финансовая поддержка, конкурентоспособность, инновации, занятость.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy milliy iqtisodiyotda barqaror o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli hamda eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining real daromadlarini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada, iqtisodiy o'sishning barqarorligi ta'minlanadi. Kichik tadbirkorlik faoliyati soliq tushumlari hajmining oshishi, yalpi ichki mahsulotda (YAIM) uning ulushi kengayishi orqali ham iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda kichik biznes subyektlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning ham asosiy tayanchi bo'lib bormoqda. Xususan, Namangan viloyatida aholining zich joylashuvi, mehnat resurslarining ko'pligi va tadbirkorlikka bo'lgan ijobiy munosabat ushbu sohani yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes samaradorligini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb masala sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, davlat byudjeti, kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, investitsiyalarni jalb etish hamda xorijiy investitsiyalarni samarali tashkil etish masalalariga oid muammolarni o'rganishda bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, respublikamiz olimlari – Vahobov A.V., Malikov T.S., Haydarov N.H., Jo'raev A.S. va Yo'ldoshev Z.ning tadqiqotlari nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masalalarni yoritishga xizmat qilgan.

Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olimlar – Aleshin V.A., Zotova A.I., Neshitoy A.S., Polyaka G.B., Shaxovskaya L.S., Xoxlov V.V. va Kulakova O.G. tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarida kichik biznesni rivojlantirish, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash masalalari keng yoritilgan.

Ushbu adabiyotlar iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirish borasidagi konseptual yondashuvlarni asoslashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kichik biznes subyektlarining holatini kompleks tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, taqqoslama tahlil, guruhlash, qiyoslash, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda baholash usullari qo'llanildi. Mazkur metodlar orqali mavjud holatga tizimli yondashish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, kichik biznes subyektlari rivojlanishini rag'batlantirish orqali hudud, tuman va shaharlarni kompleks hamda mutanosib tarzda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [3].

Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarni jadallashtirishni taqozo etmoqda. “Yangi O'zbekiston”ning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli tobora ortib bormoqda. Soha texnik-texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mazmunan kengayib borayotgani uni har tomonlama ilmiy tahlil qilish zaruratini oshirmoqda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes subyektlari faoliyatining kengaytirilishi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlovchi asosiy makroiqtisodiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Keyingi yillarda kichik biznesning jadal rivojlanishi natijasida ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muntazam ortmoqda. Shuningdek, kichik biznes subyektlari mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromad va farovonligini oshirishda muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarmoqda.

Masalan, 2024-yilda sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 27,5 %ni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 61 152,8 milliard so'mga ko'paydi va umumiy hajm 100 796,3 milliard so'mga yetdi.

1-jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi (mlrd. so'm).

Sohalar	2021y	2022y	2023 y	2024-yillar (yanvar-dekabr)	2025-yillar (yanvar-mart)
Sanoat (mlrd.so'm)	7174,3	8112,6	10133,7	15970,3	3305,2
Qurilish (mlrd. so'm)	5247,9	6069,8	6722,4	11754,1	2293,6
Bandlik (ming kishi)	x	x	x	x	x
Eksport (ming. AQSH.dol)	245235,1	262633,8	258859,2	294196,8	57672,9
Import (ming. AQSH.dol)	467735,3	501460,8	585068,9	503836,5	148917,2
Savdo (mlrd.so'm)	14216,3	16395,4	19 495,7	23266,9	4005,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlr)	22671,5	26208,5	30 915,6	33336,5	3311,5
Xizmatlar (mlrd. so'm)	7990,1	9742,4	11 839,2	35217,3	7831,8
Yuk tashish (mln. tonna)	27,3	29,0	30,8	35,2	7,1

Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)*	583,3	728,8	1261,1	1367,8	192,9
Yo'lovchi tashish (mln.yo'lovchi)*	423,7	437,6	446,9	455,4	103,8
Yo'lovchi aylanmasi (mln. pass.km)	7979,0	8415,1	8981,1	9522,0	2232,8

2025-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan qurilish tarmog'ida ishlab chiqarish hajmi 2 293,6 mlrd so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 5 247,9 mlrd so'mga oshgan.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish sohalarida ham keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati sezilarli darajada rivojlanib, ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, 2021-yilga nisbatan mos ravishda 22 671,5 mlrd so'm va 3 311,5 mlrd so'mga o'sish kuzatilib, ishlab chiqarish hajmi mos ravishda 7 990,1 mlrd so'm va 7 831,8 mlrd so'mga yetdi (2-jadval).

2- jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, foizda.

Tarmoq	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Sanoat	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0
Qishloq xo'jaligi	98,0	98,6	98,5	98,3	97,9	96,7	96,7
Qurilish	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4
Savdo	87,1	89,6	88,4	86,3	83,6	82,3	100
Bandlik	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	-

2-jadvaldan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng yuqori darajani tashkil etmoqda. Buning sababi – ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarini nisbatan kichik ko'lamda tashkil etish iqtisodiy va texnologik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qurilish sohasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 66–75 % atrofida shakllanmoqda. Bu holat keyingi o'n yilliklarda kichik sanoat obyektlari qurilishi va aholi uchun uy-joy barpo etish hajmining ortib borishi bilan izohlanadi.

Sanoat tarmog'ida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2019-yilgacha izchil o'sib, 45,3 %ga yetgan. Biroq, 2020-yildan boshlab mazkur ko'rsatkichda keskin pasayish kuzatilib, 2024-yilda bu ko'rsatkich 27,0 %ni tashkil etdi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining daromadlarini ko'paytirishda kichik biznes muhim rol o'ynamoqda. Jumladan, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi bandlikdagi ulushi Yaponiyada 78,0 %, Italiyada 71,0 %, Germaniyada 69,5 %, Buyuk Britaniyada 56,0 %, AQSHda 54,0 %, Rossiyada esa 25,6 %ni tashkil etmoqda [11].

Mazkur raqamlar kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash va samaradorligini oshirish dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Respublikamizda yangi ish o'rinlari yaratish va bandlik darajasini oshirish borasidagi eng muhim yo'nalishlardan biri kichik biznes subyektlarini jadal rivojlantirishdir. Ularga keng imtiyozlar va imkoniyatlar yaratish orqali ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash real iqtisodiyotni isloh etishning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitining sezilarli darajada yaxshilanishi natijasida kichik biznes subyektlari faoliyatida jiddiy ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, raqobat muhitining kengayishi, mahsulot sifatining oshishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi, kichik biznes



subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning diversifikatsiyalashuvi bu boradagi ijobiy siljishlarga sabab bo'ldi.

Kichik biznes subyektlariga davlat tomonidan berilayotgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash choralari natijasida ularning yalpi ichki mahsulotda, shuningdek, viloyatlarning yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.


Namangan viloyatida kichik biznesning bugungi holatini tahlil qilganda, sohani moliyalashtirish hajmi 2018-yilga nisbatan 2023-yilda 42,6 %ga oshgan. Bu holat mamlakatga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmining ortganligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirish va ularni moliyalashtirish jarayonini mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda olib borish zarur. Shu sababli banklar quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- jalb etilgan xorijiy investitsiyalarni mamlakatning barcha hududlariga yo'naltirish, xususan, mazkur mablag'larni tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnologik yangilanish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirish;

- xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag'larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, xususan, go'sht-sut va meva-sabzavotlarni qayta ishlashga yo'naltirish hamda tadbirkorlarning ushbu loyihalarni amaliyotga tatbiq etishlariga har tomonlama ko'maklashish.

2024-yil yanvar–dekabr oylarida viloyat bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 14 348,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 %ni tashkil etdi(1-rasm).



1-rasm. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da.

2024-yil yanvar–dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi – ya'ni 47,5 % – viloyatning ikki hududida o'zlashtirildi. Jumladan, To'raqo'rg'on tumanida bu ko'rsatkich 10,6 %ni, Namangan shahrida esa 36,9 %ni tashkil etdi.

Qator hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Jumladan, To'raqo'rg'on tumanida o'sish 136,0 %ni (1 525,4 mlrd so'm), Yangiqo'rg'on tumanida esa 120,9 %ni (662,9 mlrd so'm) tashkil etdi.

2024-yil yanvar–dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha quyidagi yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi:

Namangan shahri – 7 902,9 ming so'm (2021-yilga nisbatan 87,9 %),


Namangan tumani – 8 001,0 ming so'm (117,3 %),

To'raqo'rg'on tumani – 6 449,8 ming so'm (132,7 %),

Chust tumani – 4 841,7 ming so'm (104,2 %).

Asosiy kapitalga investitsiyalar manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2021-yilga nisbatan 105,3 % o'sish kuzatilib, jami 12 652,0 mlrd so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu jami investitsiyalar hajmining 88,2 % ulushini tashkil etdi.


Shu bilan birga, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 696,2 mlrd so'm yoki 11,8 % miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar yo'naltirildi.



2-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari (mlrd so'm).

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida quyidagi ulushlar kuzatildi: viloyat bo'yicha qurilish-montaj ishlariga to'g'ri kelgan xarajatlar 41,0 %ni, mashina, uskuna va inventar sotib olish xarajatlari 54,4 %ni, boshqa xarajatlar esa 4,6 %ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni faol jalb etish, ularning iqtisodiy jozibadorligini oshirish, istiqbolli hamkorlik loyihalarini amalga oshirish hamda yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali milliy ishlab chiqarish mahsulotlarining sifatini jahon bozorlarining zamonaviy talablariga mos ravishda oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.



3-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Olib borilgan izlanishlar natijalariga asoslanib, mamlakatimiz hududlarida kichik biznes korxonalarini yanada rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

kichik biznesning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida investitsiya fondlarini rivojlantirish;

kichik biznesni moliyalashtirishga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan fondlarni shakllantirish;

tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarining boshlang'ich kapitalini shakllantirish hamda ularning investitsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish orqali mamlakatda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni hal etish.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish orqali kichik biznes subyektlarining investitsiyaviy jozibadorligi va ularning rivojlanish darajasini oshirish natijasida quyidagi ijobiy samaralarga erishish mumkin, deb hisoblaymiz:

investitsiyaviy jozibadorlikning oshishi va hududlarga investitsiyalar oqimini kuchaytirish bozor munosabatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan, investitsiya maqsadlari uchun boshlang'ich kapitalni shakllantirish va uzoq muddatli kreditlarni kengaytirish imkonini beradi;

raqobat muhitining shakllanishi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi;

ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning ma'lum darajada bartaraf etilishi kichik biznesni iqtisodiyotning strategik va mobil sektori sifatida yanada rivojlantirishga zamin yaratadi [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, aniqlangan barcha tendensiyalar O'zbekiston Respublikasidagi kichik biznes subyektlari uchun to'liq xarakterlidir. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kichik biznesni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy qarorlarni qabul qilinmoqda.

Xususan, moliyaviy muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar doirasida kichik biznesni kreditlash hajmini oshirish, shuningdek, davlat byudjeti mablag'larini xususiy moliyaviy muassasalarga joylashtirish orqali kichik biznesni kreditlash hajmini kengaytirish maqsadida maxsus tanlovlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kichik biznes bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, u harakatchanlik, moslashuvchanlik va yuqori samaradorlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Kichik biznes subyektlarining rivojlanishi iqtisodiyotda ijobiy jarayonlarning chuqurlashishiga, jamiyatni erkinlashtirishga va xalqaro miqyosda mamlakat siyosiy vaznining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida davlatga nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy dividendlar ham keltiradi.


Shu bilan birga, kichik biznesning ko'plab xos xususiyatlari bozor munosabatlarining to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, yaqin istiqbolda kichik biznesni izchil va samarali rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-04-21-yildagi PQ-5087-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-04-21-yildagi PQ-5088-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2021-01-28-yildagi PF-60-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-04-05-yildagi PF-4160-sonli Farmoni.



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021–04–21-yildagi PQ-5087-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021–04–21-yildagi PQ-5088-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022–01–28-yildagi PF-60-sonli Farmoni.
8. Xodiev N.X., Abdukarimov I.T. – "Biznes va tadbirkorlik asoslari". Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
9. Saidov A.X. – "Ekologik menejment va tadbirkorlik". Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
10. Jo'rayev N., Qosimov O. – "Barqaror rivojlanish va ekologik iqtisodiyot". Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
11. Rutkauskas, A.V., Ergashev, A. – Small business in Uzbekistan: situation, problems and modernization possibilities. In: 7th International Scientific Conference on Business and Management. Vilnius, Lithuania, 2012.
12. Ergashev A.M. – O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2017. – T. 8. – № 6. – B. 106.
13. Ismatov R., Jalalova M. – "Hududlarda kichik biznes korxonalarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish" // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – 2022. – № 11/2 (95). – B. 7.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100